YOSHLARNI VATANPARVARLIK TARBIYASI ASOSIDA KOSMOPOLITIZM TA’SIRIDAN ASRASHDA IJTIMOIY VA MILLIY IDENTIKLIKNI ANGLASHNING AHAMIYATI

Mamadalimov Azimjon Xasanboyevich
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi dotsent
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9256-8705

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizm ta’siridan asrashda ijtimoiy va milliy identiklikni anglashning nazariy, hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Globallashuv jarayonlari sharoitida yoshlar ongiga turli g‘oyaviy oqimlarning tez kirib borishi milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda milliy identiklik va ijtimoiy identiklikning vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarni kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishning pedagogik mexanizmlari, jumladan, oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligi, tarixiy-madaniy merosga tayangan tarbiya usullari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yoshlar ongida milliy o‘zlikni mustahkamlash va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish orqali ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, kosmopolitizm, vatanparvarlik, milliy identiklik, ijtimoiy identiklik, yoshlar tarbiyasi, mafkuraviy immunitet, ma’naviy tarbiya, fuqarolik mas’uliyati, milliy qadriyatlar.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mislsiz sur’atlarda rivojlanishi hamda dunyo miqyosida madaniy, siyosiy va iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi zamonaviy jamiyat hayotida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qator mafkuraviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga turli g‘oyalar, qarashlar va qadriyatlarning tezkor kirib borishi natijasida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy meros va vatanparvarlik tuyg‘ularining barqarorligini ta’minlash dolzarb pedagogik, hamda ijtimoiy muammolardan biriga aylanmoqda. Bunday sharoitda kosmopolitizm g‘oyalarining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri, ularning milliy identikligi va fuqarolik mas’uliyatiga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, kosmopolitizm insoniyatning yagona global hamjamiyat sifatida rivojlanishini e’tirof etuvchi g‘oyaviy qarash bo‘lib, uning ayrim ijobiy jihatlari xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq ushbu qarashlarning mutlaqlashtirilishi natijasida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularining zaiflashishi, yoshlarning o‘z milliy ildizlaridan uzoqlashishi kabi salbiy oqibatlar ham kuzatilishi mumkin. Shu bois yoshlarni kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilish, ularda milliy manfaatlarga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va Vatanga daxldorlik hissini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati hamda milliy

g‘ururni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni yot g‘oya va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizm ta’siridan asrashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

ASOSIY QISM

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizm ta’siridan asrashda ijtimoiy va milliy identiklikni anglash masalasi pedagogika, sotsiologiya, psixologiya hamda siyosatshunoslik fanlari kesishmasida tadqiq etilayotgan murakkab va ko‘p qirrali ilmiy muammolardan biridir. Mazkur muammoning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida turli jihatlardan yoritilgan bo‘lib, ularda identiklikning shakllanishi, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash hamda globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Identiklik nazariyasining ilmiy-metodologik asoslari E. Erikson, H. Tajfel, J. Turner, A. Giddens, M. Castells kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Erikson identiklikni shaxs rivojlanishining muhim psixologik mexanizmi sifatida talqin qilib, insonning o‘zligini anglash jarayoni jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar orqali shakllanishini asoslab bergan. Tajfel va Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identiklik nazariyasida esa shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini his etishi uning ijtimoiy xulqi, qadriyatlari va dunyoqarashiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida baholanadi. Ushbu nazariyalar yoshlarning jamiyat, millat va davlat bilan bog‘liqlik hissini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy identiklik va millat tushunchalarining nazariy jihatlari B. Anderson, E. Gellner, A. Smith hamda E. Hobsbawm kabi olimlarning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ular milliy identiklikni tarixiy xotira, madaniy meros, til, urf-odatlar va umumiy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tavsiflaydilar. Ayniqsa, Andersonning “tasavvur etilgan hamjamiyat” konsepsiyasi millat a’zolarining o‘zaro birdamlik va daxldorlik hissi orqali birlashishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar yoshlar ongida milliy mansublik hissini shakllantirishning ilmiy asoslarini aniqlash imkonini beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi masalalari Sharq mutafakkirlari merosida ham alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, hamda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Vatanga muhabbat, ma’naviy kamolot, komil inson tarbiyasi va jamiyat oldidagi mas’uliyat masalalari chuqur yoritilgan. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim ma’naviy manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham vatanparvarlik, milliy g‘oya, ma’naviy xavfsizlik va yoshlar tarbiyasiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy va fuqarolik identikligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili yoshlarni kosmopolitizm ta’siridan asrashda ijtimoiy va milliy identiklikning o‘zaro bog‘liqligi, hamda ularning vatanparvarlik tarbiyasidagi integrativ ahamiyati yetarli darajada

kompleks tadqiq etilmaganligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, aksiologik, kompetensiyaviy, tizimli, madaniyatshunoslik va sotsial-konstruktivistik yondashuvlardan foydalanildi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yoshlarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish imkonini beradi. Aksiologik yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa yoshlarda vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish, hamda konseptual modellashtirish usullari qo‘llanildi. Empirik metodlar sifatida kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik diagnostika va olingan natijalarni statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yoshlarning ijtimoiy va milliy identiklik darajasi hamda vatanparvarlik sifatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Shunday qilib, tadqiqotning metodologik asosini identiklik nazariyasi, vatanparvarlik tarbiyasi konsepsiyalari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuvlar yoshlarni kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishda ijtimoiy va milliy identiklikning pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil etish, hamda samarali tarbiyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, globallashuv va raqamli axborot makonining kengayishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy pozitsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy va ijtimoiy identiklikning yetarli darajada shakllanmaganligi ayrim yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, fuqarolik mas’uliyatining sustligi hamda kosmopolitik qarashlarning mutlaqlashuviga moyillikni kuchaytirishi aniqlandi. Aksincha, o‘z milliy mansubligini chuqur anglagan, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalangan yoshlar turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyani namoyon etishi kuzatildi.

Tahlillar natijasida ijtimoiy identiklik va vatanparvarlik kompetensiyasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. O‘zini jamiyatning faol a’zosi, davlat va xalq manfaatlariga daxldor shaxs sifatida anglaydigan yoshlarda fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik va Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shish motivatsiyasi yuqori darajada shakllanganligi kuzatildi. Bunday yoshlar jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabat bildirish, milliy manfaatlarni himoya qilish, hamda ijtimoiy birdamlikni qo‘llab-quvvatlashga ko‘proq moyillik ko‘rsatadilar.

Shuningdek, ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini tizimli tashkil etish ijtimoiy va milliy identiklikni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi tasdiqlandi. O‘quv mashg‘ulotlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, muzey pedagogikasi, tarixiy-madaniy obidalarga ekskursiyalar, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi loyihalar hamda ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish yoshlarning Vatanga daxldorlik hissini sezilarli darajada

kuchaytirishi aniqlandi. Mazkur faoliyat turlari yoshlarda milliy o‘zlikni anglash bilan bir qatorda ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligini ham rivojlantiradi.

Natijalar yoshlarni kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishda mafkuraviy immunitetning ahamiyati yuqori ekanligini ham ko‘rsatdi. Mafkuraviy immunitetning shakllanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un o‘zlashtirilishi, tanqidiy tafakkurning rivojlanganligi hamda axborotlarni tahliliy baholash ko‘nikmalarining mavjudligi bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Bunday sifatlar yoshlarning turli destruktiv g‘oyalar, madaniy begonalashuv va ma’naviy tahdidlarga nisbatan mustaqil, hamda asosli pozitsiya shakllantirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi shundaki, unda yoshlarni kosmopolitizm ta’siridan asrashda ijtimoiy va milliy identiklikning integrativ pedagogik omil sifatidagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, milliy identiklik, ijtimoiy identiklik va vatanparvarlik kompetensiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik modeli ishlab chiqildi hamda ularning yoshlar mafkuraviy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni ochib berildi. Olingan natijalar ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish, fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishda ijtimoiy va milliy identiklikning hal qiluvchi pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida insonning bir vaqtning o‘zida ham milliy, ham global makon subyekti sifatida shakllanishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq mazkur jarayon milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga sodiqlik bilan uyg‘unlashmaganda shaxsda identifikatsion noaniqlik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tadqiqot natijalari identiklikning barqaror shakllanishi yoshlarning mafkuraviy mustaqilligi va vatanparvarlik pozitsiyasini ta’minlashda muhim nazariy, hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar ijtimoiy identiklik nazariyasi asoschilari tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Xususan, shaxsning muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat va millat bilan o‘zini bog‘lay olishi uning qadriyatlari, xulq-atvori, hamda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, o‘zini jamiyat taraqqiyotiga daxldor deb biladigan yoshlarda vatanparvarlik hissi, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari yuqoriroq namoyon bo‘ladi. Bu holat identiklikning nafaqat psixologik, balki muhim pedagogik kategoriya sifatida ham qaralishi zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida kosmopolitizm tushunchasiga nisbatan biryoqlama yondashuv ilmiy jihatdan to‘g‘ri emasligini ham alohida ta’kidlash lozim. Chunki kosmopolitizmning ayrim jihatlari millatlararo hamkorlik, tolerantlik, ochiq muloqot va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammo kosmopolitik qarashlarning milliy manfaatlar, milliy qadriyatlar va tarixiy-madaniy merosdan ustun qo‘yilishida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari aynan mana shu holat yoshlarning milliy identikligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli

vatanparvarlik tarbiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etilishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, milliy identiklikning shakllanishida tarixiy xotira muhim determinantlardan biri hisoblanadi. O‘z xalqining tarixi, madaniyati, buyuk ajdodlari va milliy taraqqiyot yo‘lini chuqur bilgan yoshlar yot g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishga qodir bo‘ladilar. Bu esa tarixiy ong va tarixiy xotirani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar, ma’naviy meros va milliy davlatchilik an’analari haqidagi bilimlar yoshlarning Vatanga daxldorlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari raqamli axborot makonining yoshlar identikligiga ta’siri tobora ortib borayotganligini ham ko‘rsatdi. Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali turli madaniyatlar, qadriyatlar va mafkuraviy qarashlar bilan muntazam to‘qnash kelmoqda. Bunday vaziyatda axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, media madaniyat va axborot xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirish vatanparvarlik tarbiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shuning uchun zamonaviy pedagogik amaliyotda raqamli pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish orqali yoshlarning milliy identikligini mustahkamlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari vatanparvarlikni faqat hissiy munosabat sifatida emas, balki kompetensiyaviy sifat sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Zamonaviy vatanparvarlik shaxsning Vatanga muhabbati bilan bir qatorda uning jamiyat oldidagi mas’uliyati, fuqarolik faolligi, ijtimoiy tashabbuskorligi va milliy manfaatlarni himoya qilishga tayyorligida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda milliy va ijtimoiy identiklik vatanparvarlik kompetensiyasining tarkibiy asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari yoshlarni kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan asrashda taqiqlash yoki cheklashga asoslangan yondashuvlardan ko‘ra, ularda mustahkam milliy identiklik, rivojlangan ijtimoiy mas’uliyat va yuksak vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv yoshlarning global jarayonlarda faol ishtirok etishi bilan bir qatorda milliy manfaatlarga sodiq, ma’naviy barkamol va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida kamol topishini ta’minlaydi. Shu bois ijtimoiy va milliy identiklikni rivojlantirish Yangi O‘zbekiston sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizm ta’siridan asrashda ijtimoiy va milliy identiklikni anglashning ahamiyatini o‘rganish natijasida ushbu muammo zamonaviy pedagogika, ijtimoiy tarbiya va ma’naviy xavfsizlik tizimining dolzarb masalalaridan biri ekanligi aniqlandi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot oqimlarining kengayishi va madaniyatlararo integratsiyaning kuchayishi yoshlar dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan bir sharoitda ularda milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati va Vatanga daxldorlik hissini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida ijtimoiy va milliy identiklik yoshlarning vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda fundamental omil ekanligi nazariy va amaliy jihatdan

asoslandi. Milliy identiklik shaxsning o‘z xalqining tarixi, madaniyati, tili, qadriyatlari va an’analariga daxldorlik hissini shakllantirsa, ijtimoiy identiklik uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini anglashiga xizmat qiladi. Ushbu ikki omilning uyg‘un rivojlanishi yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, yuksak ma’naviyat va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kosmopolitizmning salbiy ta’siri, avvalo, milliy identiklikning zaiflashuvi, tarixiy xotiraning sustligi hamda milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik holatlarida namoyon bo‘ladi. Shu bois yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning eng samarali yo‘li ularda milliy va ijtimoiy identiklikni rivojlantirish, tarixiy ongni mustahkamlash hamda vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv yoshlarning global axborot makonidagi turli g‘oyalarni tanqidiy tahlil qilish va ularga nisbatan mustaqil pozitsiya shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligining uzviyligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish, muzey pedagogikasi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb etish identiklikni rivojlantirishning samarali pedagogik vositalari sifatida e’tirof etildi. Ushbu faoliyatlar yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda yoshlarni kosmopolitizm ta’siridan asrashning pedagogik modeli sifatida milliy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar va zamonaviy kompetensiyalar uyg‘unligiga asoslangan integrativ yondashuvning afzalliklari asoslab berildi. Mazkur model yoshlarning bir tomondan global taraqqiyot yutuqlaridan samarali foydalanishini, ikkinchi tomondan esa milliy manfaatlar va ma’naviy qadriyatlarga sodiq bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi asosida kosmopolitizmning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishning eng muhim sharti ularda ijtimoiy va milliy identiklikni chuqur shakllantirish hisoblanadi. Milliy o‘zligini anglagan, tarixiy xotiraga ega, fuqarolik mas’uliyatini his qiladigan va Vatan ravnaqiga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan yoshlar har qanday mafkuraviy tahdidga nisbatan barqaror pozitsiyani namoyon etadi. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida milliy va ijtimoiy identiklikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish esa vatanparvar, ma’naviy yetuk va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning ilmiy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Anthony Giddens. *The Consequences of Modernity*. Stanford University Press, 1990.
2. Manuel Castells. *The Power of Identity*. Blackwell Publishers, 2010.
3. Ulrich Beck. *What is Globalization?* Polity Press, 2000.
4. Kwame Anthony Appiah. *Cosmopolitanism: Ethics in a World of Strangers*. W.W. Norton, 2006.
5. Zygmunt Bauman. *Globalization: The Human Consequences*. Columbia University Press, 1998.

6. John Dewey. *Democracy and Education*. New York, 1916.
7. Erik Erikson. *Identity: Youth and Crisis*. New York, 1968.
8. Anthony D. Smith. *National Identity*. University of Nevada Press, 1991.
9. Henri Tajfel. *Social Identity and Intergroup Relations*. Cambridge University Press, 1982.
10. John C. Turner. *Rediscovering the Social Group*. Oxford, 1987.